

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETIDA TALABALARNI BILIMINI BAHOLASH ME'ZONLARI

Nazorat turlari va baholash mezonlari

1. Universitetda talabalar bilimini nazorat qilish fanning xususiyatidan kelib chiqib joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

2. Talabalar bilimi quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

100 ballik	5 baholi	Baholash mezonlari
90-100	5	“Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega” deb topilganda
70-89	4	“Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda” ega deb topilganda
60-69	3	“Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda” deb topilganda
0-59	2	“Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas” deb topilganda

3. Tegishli fan bo'yicha mas'ul professor-o'qituvchilar o'quv dasturi (sillabus)da ushbu fandan o'tkaziladigan nazorat turlari, baholash mezonlari va ballar taqsimotini fanning xususiyatidan kelib chiqib, batafsil ko'rsatib o'tishlari lozim.

4. **Joriy nazorat** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Talabalarning dars mashg'ulotlariga ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazu yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlari va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin. Bunda joriy nazorat uchun ajratilgan ball miqdori **40 %**ni tashkil etadi.

5. **Oraliq nazorat** – semestr davomida fan dasturi (sillabus)ning tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalari darajasini aniqlash va baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi. Oraliq nazorat soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va platformada interaktiv topshiriq elementidan foydalanilgan holda (yozma, og'zaki, test, taqdimot, kitobxonlik va hokazo) shaklida fanga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin. Bunda oraliq nazorat uchun ajratilgan ball miqdori **20 %** ni tashkil etadi.

6. Oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib, tegishli fan o'qituvchisi tomonidan belgilanib, o'quv dasturi (sillabus)da ko'rsatib o'tilishi lozim. Oraliq nazorat topshiriqlari tegishli fan uchun mas'ul professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

7. **Yakuniy nazorat** turi semestr yakunida fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy

ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat asosan "yozma ish", "test", "og'zaki" yoki fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin. Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan uchun mas'ul professor-o'qituvchilar tomonidan belgilanadi. Bunda yakuniy nazorat uchun ajratilgan ball miqdori **40 %**ni tashkil etadi.

8. Dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazorat uchun ajratilgan jami ballar(60 ball)ning kamida 60 % to'play olmagan talabaga yakuniy nazoratga kirishga ruxsat berilmaydi.

9. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$UB = JN + ON + YaN$$

bu erda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.